
"Besh bola"dagi Quva ko'chasi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlandi

Mamlakatimizda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Farg'ona shahridagi "Besh bola" MFY Quva ko'chasida 200 ga yaqin xonadonlar bor. Bu yerda aholi vakillari o'tgan asrning boshlaridan buyon istiqomat qilishadi.

Aholi vakillari shu kunga qadar toza ichimlik suvi ta'minotidagi muammoni quduq qazish orqali bartaraf etishgan. Quduqdagi suv esa iqlim o'zgarishi hisobiga foydalanishga yaroqsiz bo'lgan.

Fuqarolarning murojaati Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov hamda xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan o'rganildi. Hududga tiq quduq qazilib, 300 metrdan toza ichimlik suvi olinmoqda. Ta'minotni xonadonlarga yetkazish maqsadida 2000 metr tarmoq ham tortildi. Aholining asriy orzularini amalga oshirish uchun mahalliy byudjetdan 350 mln. so'm mablag' ajratildi.

Respublika ishchi guruhi vakillari va sektor rahbarlari mazkur jarayonlar bilan ham tanishdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-16 11:30:23